



ODIL SUDLOVNI AMALGA OSHIRISH ORQALI ADOLAT TA'MINLANADI

Isakova Shoxsanam Nuriddin qizi

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi "Sud-huquqiy faoliyat"
yo'nalishi 1-bosqich 32-guruh o'quvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada muallif tomonidan odil sudlov amalga oshiradigan sud organlarining tizimi, mamlakatimizda sud-huquq sohasida amalga oshirilgan islohotlar hamda qabul qilingan normativ huquqiy hujjatlar xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: odil sudlov, sud tizimi, sud-huquq islohotlari, ijtimoiyadolat va qonuniylik prinsipi, insonparvarlik g'oyalari, sud orqali himoya qilish.

Аннотация: В данной статье автор рассказал о системе судебных органов, осуществляющих правосудие, реформах, проводимых в нашей стране в судебно-правовой сфере, а также принятых нормативных правовых актах.

Ключевые понятия: правосудие, судебная система, судебно-правовая реформа, принцип социальной справедливости и законности, гуманистические идеи, судебная защита.

Abstract:

This article deals with the system of judicial bodies that carry out justice by the author, the reforms carried out in the field of judicial law in our country and the regulatory legal acts adopted.

Key concepts: justice, the judicial system, judicial reform, the principle of social justice and legality, humanitarian ideas, protection through the court.

Darhaqiqat mustaqillikdan so'ng mamlakatimizda sud hokimiyatini mustaqil hokimiyat tarmog'i sifatida jamiyat va davlat mavqeい hamda obro'sini oshirish, uni chinakam odil sudlovni ta'minlovchi, xalq haqiqatda ishonadigan organ sifatida shakllantirish borasida ko'plab islohotlar amalga oshirildi, normativ hujjatlar qabul



qilindi, katta huquqiy baza yaratildi. Sud organlarining asosiy vazifasi jamiyatda odil sudlovni amalga oshirish orqali adolatni ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlashdir.

Odil sudlov bu haqiqiy holatni aniqlab, fuqarolar, yuridik shaxslar o'rtasidagi, ular bilan jamiyat va davlat o'rtasidagi kelishmovchilik va nizolarni faqat sud tomonidan hal etib berilishi. Odil sudlovni amalga oshirish borasida sud mustaqil, uning faoliyatiga bironbir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijo etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. O'zbekiston Respublikasida sud tizimi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiy sudidan, shu muddatga tayinlanadigan fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, harbiy va iqtisodiy sudlaridan iborat.

Odil sudlovni yuritishning konstitutsiyaviy, fuqarolik, iqtisodiy, jinoiy va ma'muriy turlari belgilangan. Mustaqillik sharofati bilan odil sudlovni amalga oshirish uchun sud vakolatlarida tub o'zgarishlar yuz berdi. O'zbekiston Respublikasining "Sud to'g'risida"gi 28.07.2021 yilda O'RQ-703-son qonuni¹ yangi tahrirda qabul qilindi. Sud vakolatlari xalqaro andozalarga mos keladigan darajada kengaytirilib, sudlar orqali inson huquklarini va jamiyatning huquqiy negizlarini samarali himoya qilishga imkon beradigan shartsharoitlar yaratilmoqda.

Sud islohoti yo'sinida odil sudlovni amalga oshirishning birmuncha takomillashtirilgan protsessual tartibi belgilandi, suda kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yish borasida samarali tizimga asos solindi, sud protsessi ishtirokchilarining tengligi qonunda mustahkamlab qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsyaning sud hokimiyatiga bag'ishlangan qoidalari odil sudlovni tashkil etish, sud organlarining davlat mexanizmidagi va jamiyatning siyosiy tizimdag'i roli va o'rni haqidagi masalalarga doir qonunchilik uchun negiz hisoblanadi. Sud islohotini chuqurlashtirish, hokimiyatning mustaqil va qaram bo'limgan tarmog'i sifatida butun odil sudlov tizimini demokratlashtirish - huquqiy davlatni

¹ O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi 28.07.2021 yildagi O'RQ-703-son qonuni
<https://lex.uz/docs/5534923>.



mustahkamlashning yana bir muhim yo‘nalishidir. Ijtimoiy turmushning demokratik instituti tariqasida sudning ahamiyati jiddiy ravishda oshirilishi zarur.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan mamlakatimiz Konstitutsiyasi mustqillikning o‘tgan yillik tarixiy davrida amalga oshirilgan demokratik, liberal va insonparvar islohotlarning hamda ularning qonunchilik asoslarini yaratishning mayog‘i va bosh huquqiy asosi, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishning kafolati bo‘lib xizmat keldi. 2023 yilda yangi tahrirda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi²ning qabul qilinishi munosabati bilan sud-huquq sohasida ham katta ijobiy o‘zgarishlar yuz bergenligi alohida e’tirof etish mumkin.

Demokratik huquqiy davlatning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan sud-huquq tizimini chuqur isloh etish va inson huquqlarini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, uning qonunchilik asoslari ham Konstitutsiyamiz tamoyillari va qoidalari asosida tubdan qayta ko‘rib chiqilib, ijtimoiyadolat va qonuniylik prinsipi, insonparvarlik g‘oyalariga tayangan holda ishlab chiqildi.

Shu o‘rinda mamlakatimizda amalga oshirilgan va bugun yanada jadal davom etayotgan puxta o‘ylangan, rejali va odilona huquqiy siyosat natijasida Konstitutsiyada belgilangan sud-huquq tizimiga, inson huquq va erkinliklariga oid normalarning alohida qonun hujjalarda mustahkamlash orqali rivojlanayotganligi hamda amaliyotda samarali qo‘llanilayotganligi xususida to‘xtalib o‘tsak.

Konstitutsiyamizda sud alohida hokimiyat, sud hokimiyyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi, sudyalar mustaqildirlar, ular faqat qonunga bo‘ysunadilar, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi. Har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi, deb qat‘iy belgilab qo‘yildi.

Mazkur konstitutsiyaviy normalar mazmuniga muvofiq sudning mustaqilligini ta‘minlash, uni inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya etishga xizmat qiladigan tom manodagi mustaqil davlat institutiga aylantirishga qaratilgan keng ko‘lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, sud tizimi butunlay ijro etuvchi hokimiyyat organlarining nazorati va ta‘siri ostidan chiqarildi. Sudlarning vakolatlari izchil kengaytirilib, ayni paytda o‘ziga xos bo‘lmagan

² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.–T.: “O‘zbekiston”, 2023-y.

vazifalardan ozod etildi, jumaldan sudlar jinoyat ishini qo‘zg‘atish, jinoyat ishi bo‘yicha ayblov xulosalarini e‘lon qilish vakolatlaridan soqit qilindi. Dastlabki tergov ustidan sud nazorati kuchaytirilib, prokuratura organlarining sud jarayoniga aralashuvini jiddiy cheklash bo‘yicha qonunchilik normalariga zarur o‘zgartishlar kiritildi.

Sudlarda ishlarni ko‘rib chiqishning qat‘iy muddatlari belgilandi, kassatsiya va nazorat taftish instansiyalari isloh qilindi, ishlarni qayta ko‘rib chiqishning apellyatsiya tartibi joriy etildi. Mazkur tartib birinchi instansiya sudlari tomonidan yo‘l qo‘yilgan hatolarni o‘z vaqtida tuzatish, sud faoliyatida sansalorlikka yo‘l qo‘ymaslikning muhim kafolatiga aylandi.

Shuningdek, jinoyat va fuqarolik ishlarini malakali asosda ko‘rib chiqish, inson huquq va erkinliklarini to‘la va har tomonlama himoya qilish bo‘yicha faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida umumiyligi yurisdiksiya sudlarining ixtisoslashuvi amalga oshirildi, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tuzildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma‘muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi etib belgilandi.

Sud tizimini malakali, yetuk kadrlar bilan ta‘minlashda sudyalik lavozimiga kadrlarni tanlash va tavsiya etish bo‘yicha zamonaviy demokratik tamoyillarga asoslangan huquqiy mexanizmi yaratildi, ya‘ni mustaqil Sudyalar oliy kengashi tashkil etilib, ushbu sohadagi vakolatlarni amalga oshirish unga yuklatildi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Konstitutsiyada belgilangan sud-huquq tizimiga oid qoidalar alohida qonun hujjatlarida yildan-yilga inson huquqlari ustuvorligi tamoyilining bosh omil ekanligidan kelib chiqib rivojlanmoqda. Eng muhim mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi mamlakatimizda sud-huquq tizimini isloh etish hamda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish bilan bog‘liq islohotlar mayog‘i, ularning qonunchilik asoslarini yaratish va takomillashtirishning boshlang‘ich nuqtasi va asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.—T.: “O‘zbekiston”, 2023-y.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi 28.07.2021 yildagi O‘RQ-703-sun qonuni <https://lex.uz/docs/5534923>.
3. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar: Darslik / Mualliflar jamoasi – T.: TDYU nashriyoti, 2022-y.